



## MATEMATIKA FANIDA INTERFAOL O'YINLARDAN FOYDALANISH

*Bo‘ronova Gulnozaxon Maxammadjonovna*

*Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumani MMTB ga qarashli 43-umumiy o‘rta ta’lim  
maktabining boshlang‘ich sinfo ‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** innovatsiya, interfaol, pedagogik mahorat, samaradorlik, didaktik vazifa, xotira, ta’lim sifati.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning puxta bilim egallashi birinchi darajali vazifa sifatida qaraladi. Har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini oshirish, ularni darsga faol jalb etish va mustahkam bilim berish uchun o‘qituvchilar tomonidan turli pedagogik yondashuvlar, xususan, zamonaviy va interfaol metodlardan foydalanimishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Interfaol metodlar — bu o‘quvchi va o‘qituvchining o‘zaro hamkorlikda faol ishtiropki asosida tashkil etiladigan o‘qitish usullaridir. Mazkur metodlar o‘quv jarayonini jonlantirish, darsni qiziqarli va mazmunli tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Hozirgi kunda o‘qitish jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy metodlar ichida o‘yinli, muammoli, loyiha asosidagi va guruhlarda ishlashga asoslangan usullar keng qo‘llanmoqda. Dars jarayonida o‘quvchilarning e’tiborini jalb etish, ularni zeriktirib qo‘ymaslik, har bir bolaga individual yondashuvni yo‘lga qo‘yish uchun interfaol metodlar juda qo‘l keladi. Ayniqsa, yosh bolalarning psixologik



xususiyatlarini inobatga olgan holda darslarni o‘yinlar orqali tashkil etish ularning o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi. O‘qituvchi darsni rejalashtirar ekan, tanlayotgan metodni darsning didaktik vazifalariga, mavzuning mazmuniga, o‘quvchilar soni va ularning individual imkoniyatlariga, o‘quv muassasasining moddiy-texnik bazasiga hamda o‘zining pedagogik mahoratiga tayangan holda tanlashi lozim. Shuningdek, dars davomiyligi va belgilangan maqsadlarga erishish imkoniyatlari ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Pedagogik adabiyotlarda metod va usul tushunchalarining farqlanishiga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Masalan, L.N. Skatkinning “Metodika” asarida metodikaning umumiyligi masalalariga doir bo‘limlarda “metod” atamasi keng qo‘llanilgan bo‘lsa, xususiy masalalar bayon qilingan bo‘limlarda “usul” atamasiga ustuvorlik berilgan. Bu esa metodik yondashuvlarda ham sistemalilik va aniqlik talab qilinishini anglatadi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayoniga interfaol metodlarni samarali joriy etish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish, ularning shaxsiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish va mustahkam bilimlarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchining kasbiy salohiyati, metodik saviyasi va ijodkorligi muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy pedagogikada **interfaol metodlar** deganda ta’lim oluvchini faol ishtirop etishga chorlovchi, uni mustaqil fikr lashga undovchi va o‘quv jarayonining markaziga ta’lim oluvchini qo‘yuvchi metodlar tushuniladi. Bunday metodlarda o‘qituvchi — yo‘naltiruvchi, o‘quvchi esa — faol ishtiropchi rolini bajaradi. Bu esa o‘z navbatida dars jarayonini biryoqlamalikdan chiqarib, o‘zaro fikr almashuv, bahs-munozara, muloqot, hamkorlik asosida bilimlarni egallashga xizmat qiladi.

Interfaol metodlarning asosiy afzalligi shundaki, ular o‘quvchilarni fikr yuritishga, muammoni tahlil qilish va echim topishga, mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Shu orqali o‘quvchilarda nafaqat fanga bo‘lgan qiziqish, balki



hayotiy kompetensiyalar – jamoada ishlash, fikrini asoslab berish, muloqot madaniyati, murosaga kelish ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

Bu metodlardan foydalanilgan darslar o‘quvchilarda quyidagi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi:

- erkin va ijodiy fikrlash;
- tanqidiy yondashuv;
- olingan axborotni saralash va tahlil qilish;
- yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish;
- jamoa bilan samarali ishslash.

Interfaol yondashuvning mazmuni faqatgina an’anaviy usullardan voz kechish emas, balki o‘qitish mazmunini o‘zaro faollikda hal etish orqali ta’lim samaradorligini oshirishdan iboratdir. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot muhim o‘rin tutadi. O‘quvchi faqat bilimni eslab qoluvchi emas, balki uni tushunuvchi, qayta ishlovchi va hayotiy tajribada qo‘llay oluvchi subyekt sifatida shakllanadi.

Interfaol metodlarni tatbiq etishdan ko‘zlangan bosh maqsad — o‘quv jarayonida o‘quvchilar uchun imkoniyatlarga boy, ijodiy muhit yaratishdir. Bunday darslar o‘quvchining intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, uning bilimga bo‘lgan ichki ehtiyojini uyg‘otish, ta’lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar zamonaviy ta’limning ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib, ular orqali o‘quvchi faqat bilim emas, balki hayot uchun zarur ko‘nikmalarni ham egallaydi. Bu esa uni nafaqat bugungi darsga, balki kelajak hayotiga tayyorlaydi.

**Boshlang‘ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi**



Zamonaviy ta'lif jarayonida o'quvchilarning bilimlarni puxta egallashi, ularni mustaqil fikrlashga undash va darslarga bo'lgan qiziqishini oshirishda interfaol metodlar muhim o'rinni tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lif bosqichida bu metodlardan foydalanish darslarni yanada mazmunli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar o'zlarining psixologik xususiyatlariga ko'ra o'yinga, harakatga va yangilikka intiluvchan bo'lishadi. Shu sababli darslarni rang-barang, o'yin va muammoli vaziyatlarga boy metodlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ko'paytirish jadvali kabi mavzular o'quvchilarga dastlab murakkab va qiyin tuyulishi mumkin. Bunday mavzularni tushuntirishda "**"Zanjirli misollar"**, "**"Matematik domino"**", "**"Top-diagramma"**", "**"Bilimlar auksioni"**" kabi interfaol metodlardan foydalanish orqali nafaqat mavzuni tushunishga, balki uni xotirada mustahkamlashga ham erishiladi. Bu jarayonda o'quvchilar mavzuga nisbatan faollik ko'rsatadi, fikrlashga, tahlil qilishga va bir-biri bilan hamkorlikda ishlashga odatlanadi.

Pedagogik nazariyaga ko'ra, o'qitish metodlari – bu o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyat usullaridir. Bu faoliyat davomida o'quvchilar yangi bilimlarni egallaydi, amaliy ko'nikmalar hosil qiladi, dunyoqarashi kengayadi va intellektual salohiyati rivojlanadi. Interfaol metodlar ana shu jarayonni tabiiy va qiziqarli yo'l bilan tashkil etadi. Shu o'rinda interfaol metodlarning samarali natija berishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish zarur:

1. Dars va mavzu maqsadi aniq belgilanishi lozim;
2. Mavzuga mos, didaktik maqsadga xizmat qiladigan metodlar tanlanishi kerak;
3. Bir dars davomida faqat bitta metoddan foydalanish emas, balki bir nechta usullarni navbatma-navbat tatbiq etish muhim;
4. Tanlangan metod o'quvchilarning bilim saviyasiga mos tushgan bo'lishi va ularga yangi axborotlarni yetkazib bera olishi kerak.



Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilarda mustahkam bilimlar shakllanadi, ularda o‘z fikrini bayon qilish, guruhda ishlash, mustaqil izlanish va muammoni hal etish kabi kompetensiyalar rivojlanadi. Interfaol metodlar, ayniqsa, matematik tafakkurni shakllantirish, mantiqiy fikrlashni kuchaytirish va mavzuni amaliy faoliyatga bog‘lab o‘rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish nafaqat darslarni jonlantiradi, balki o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshirish, ularda fanga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish va shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalaniłgan adabiyotlar:**

1. M.Ochilov, N.Ochilova “Oliy maktab pedagogikasi” T.-2008
2. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” T.-2017
3. R.Mavlonova, N.Voxidova va N.Raxmonqulova “Pedagogika nazariyasi va tarixi” T.-2010